

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

# FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

## Tahrir hay'ati

### Bosh muharrir Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)  
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)  
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)  
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)  
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)  
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)  
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)  
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)  
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)  
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)  
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)  
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)  
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

## Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)  
OTAJONOV S. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)  
RASULOV R. (O'zbekiston)  
ONARQULOV K. (O'zbekiston)  
YULDASHEV G. (O'zbekiston)  
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)  
DADAYEV S. (O'zbekiston)  
ASQAROV I. (O'zbekiston)  
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)  
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)  
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)  
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)  
YULDASHOV A. (O'zbekiston)  
XOLIQOV S. (O'zbekiston)  
MO'MINOV S. (O'zbekiston)  
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)  
ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)  
SHUKUROV R. (O'zbekiston)

YULDASHEVA D. (O'zbekiston)  
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)  
KASIMOV A. (O'zbekiston)  
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)  
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)  
G'OFUROV A. (O'zbekiston)  
ADHAMOV M. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.A. (O'zbekiston)  
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)  
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)  
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)  
USMONOV B. (O'zbekiston)  
ASHIROV A. (O'zbekiston)  
MAMATOV M. (O'zbekiston)  
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)  
XAKIMOV N. (O'zbekiston)  
BARATOV M. (O'zbekiston)  
ORIPOV A. (O'zbekiston)

**Muharrir:**

Sheraliyeva J.

## Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'ozi.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

**Manzil:** 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,  
2022.**

---

## TARIX

<b>Sh.Hakimova</b>	
O'zbekistonda elektroenergetika sanoatining huquqiy-meyoriy asoslari .....	113
<b>J.Bo'tayev</b>	
XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida samarqand viloyati qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar.....	118
<b>I.Bohodirov, B.Jurayev</b>	
Turkistonda XIX asr o'rtalarida armiya va harbiy ta'lim .....	123
<b>A.Yuldashev</b>	
Davlat, boshqaruv va rahbarlik masalasiga oid tarixiy qarashlar va zamonaviy yondashuvlar.....	129
<b>B.Ataxanov</b>	
Mustaqillikning ilk yillarda o'zbekistonning Belarus respublikasi bilan savdo-iqtisodiy munosabatlарining o'ziga xos xususiyatlari .....	136
<b>Sh.Husanova</b>	
Qadimgi Farg'onanening samoviy tulporlari .....	140
<b>N.Komilov</b>	
Turkiston muxtoriyati bosh vaziri o'rinnbosari – Islom Shoahmedov hayoti va faoliyatining yangi qirralari.....	146
<b>G'.Raxmonov</b>	
Farg'ona vodiysida suvdan foydalanishniyaxshilashda suvni tejovchi sug'orish texnologiyalarini joriy etishning qulayliklari.....	151
<b>O.Abdunosirova</b>	
Iskandar Mirzo – madaniyat va san'at homiysi sifatida .....	155
<b>Z.Abdullayev</b>	
Turkistonda mol-mulk musodarasi va rekvizisiya .....	158
<b>S.Istroilova, G.Karimova</b>	
Tarix fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni loyihalashtirish.....	163

---

## ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>Z.Tashtemirova, E.Gizdulin</b>	
Lirk she'riyatning turga oid xususiyatlari .....	167
<b>N.Sidikova</b>	
Yurt tarixi va el taqdiri talqinlari .....	173
<b>A.Eshdavlatova</b>	
Rauf parfi ijodida erkin ruhning nostandard isyoni ifodasi .....	177
<b>J. Xalliyev</b>	
Ogahiylar tarixiy va lirk asarlarida falsafiy-ma'rifiy istilohlar istifodasida mushtaraklik .....	182
<b>c</b>	
Yassaviy "Pirim" deb ulug'lagan zot .....	186

---

## TILSHUNOSLIK

<b>K.Yusupova</b>	
Imperativ konstruksiyalarda so'z tartibi.....	190
<b>Yu.Shuxratova, A.Mamajonov</b>	
O'xshatish munosabatini ifodalovchi morfologik vositalar.....	195
<b>A.Yuldashev</b>	
So'z yasalishining kognitiv aspekti .....	198
<b>X.Dusmatov</b>	
O'zbek milliy so'z o'yinlarining reklama matnlarida ifodalanishi.....	204
<b>N.Umarova, D.Madazizova</b>	
Tilshunoslikda "argo" tushunchasi talqinlari.....	211
<b>G.Majidova</b>	
Til darslarida madaniyatni qamrab olish .....	215
<b>L.Yo'idosheva</b>	
Muzeylarda turli xil mashg'ulotlar orqali belgilangan jamoalar bilan munosabatlarni shakllantirish .....	220
<b>N.Mamajonova</b>	
Til darslarida lug'at boyligini oshirishni ilmiy tadqiq qilish .....	224
<b>G.Isakova</b>	
"Qanotli so'z" va "sitata" tushunchalarining o'zaro farqi.....	229
<b>Z.Alimova</b>	
Ayrim forsiy frazeologik birliklarning o'zbek tilida qo'llanilishi xususida .....	233
<b>И.Порубай</b>	
Zamonaviy lingvistik bilimlarda "axborot texnologiyalari diskursi" belgilash ta'rifi .....	238

## YASSAVIY "PIRIM" DEB ULUG'LAGAN ZOT

### ЧЕЛОВЕК КОТОРОГО ЯСАВИ ПРОСЛАВИЛ КАК "ПИРИМ"

### PERSON WHO YASSAWI GLORIFIED AS "PIRIM"

**Qurbanova Elnura G'aybulloyevna1**

**1Qurbanova Elnura G'aybulloyevna**

– O'zRFA o'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti  
tayanch doktoranti.

#### *Annotatsiya*

Bir qancha toliblar va xalifalar rahnamosi, tarbiyachisi bo'lgan piri Turkistonning o'y-qarashlari, tasavvurlari uning izdoshlari tomonidan asrlar bo'yи davom ettilgan. Yassaviya tariqatining O'rta Osiyo, Qrim, Onado'li va uning atrofidagi o'lkalarga keng yoyilishiga tolilik va muridlik tajribasi ham sabab bo'lgan. Turkiston piridan irshod ilmini egallash maqsadida turli o'lkalardan ilmi toliblar kelgan. Yassaviylik tariqati hikmatlar shaklida darveshlar tomonidan yoyilgan. Piri Turkistonning irshodi ta'sirida bir qancha ilm-u tariqatda komil shayxlar va hikmatnavislar yetishib chiqqan. Ulug' pirning o'y-qarashlari va tasavvurlari izdoshlari tomonidan asrlar bo'yи davom ettilgan. Bu buyuk zotlar hayoti davomida din ahkomlariga suyangan holda xalqni ilm-ma'rifatga chorlash, jamiyat ravnaqi va farovonligi uchun xizmat qilishgan. Ahmad Yassaviy tariqatining davomchilarini, xalifalarini va izdoshlarini tadqiq qilish har doim dolzarb masaladir. Zero, turk piri izdoshlarining faoliyatlarini o'rganish uning islom madaniyati va turkiy tasavvuf adabiyoti ravnaqidagi ta'siri qanchalar buyuk bo'lganini ko'rsatadi.

#### *Аннотация*

Мысли и идеи Пира Туркестана, лидера и наставника многих талибов и халифов, были продолжены его последователями на протяжении веков. Распространение секты Яссавия в Средней Азии, Крыму, Анатолии и соседних странах также было связано с опытом талибов и мюридов. Для изучения иршада из Туркестана приезжали студенты из разных стран. Секта Яссави распространялась дервишами в виде пословиц. Под влиянием руководства Пира Туркестана совершенные шейхи и мудрецы получили образование в ряде дисциплин. Мысли и фантазии великого пира были продолжены последователями на протяжении веков. Всю свою жизнь эти великие люди, опираясь на правила религии, служили призыву народа к просвещению, процветанию и благополучию общества. Изучение последователей, халифов и последователей секты Ахмада Яссави всегда является актуальным вопросом. Действительно, изучение деятельности последователей турецкого Пира показывает, насколько велико его влияние на развитие исламской культуры и турецкой мистической литературы.

#### *Abstract*

The thoughts and ideas of Piri Turkestan, the leader and mentor of many Taliban and caliphs, have been continued by his followers for centuries. The spread of the Yassaviya sect in Central Asia, Crimea, Anatolia and surrounding countries was also due to the experience of the Taliban and the murids. Students from different countries came from Turkestan to study irshad. The Yassavi sect was spread by dervishes in the form of proverbs. Under the influence of Piri Turkestan's guidance, perfect sheikhs and sages were educated in a number of disciplines. The thoughts and imaginations of the great pir have been continued for centuries by the followers. Throughout their lives, these great people, relying on the rules of religion, served to call the people to enlightenment, the prosperity and well-being of society. The study of the followers, caliphs and followers of the Ahmad Yassavi sect is always a topical issue. Indeed, the study of the activities of the followers of the Turkish Piri shows how great its influence on the development of Islamic culture and Turkish mystical literature.

**Kalit so'zlar:** Ahmad Yassaviy, "Devoni hikmat", Hakim ota, Zangi ota, Sayid ota, Sadr ota, pir, murshid, murid, irshod.

**Ключевые слова:** Ахмад Яссави, «Девони Хикмат», Хаким ота, Занги ота, Сайд ота, Садр ота, пир, муршид, мурид, иршад.

**Keywords:** Ahmad Yassawi, "Devon of wisdom", Hakim ata, Zangi ata, Sayid ata, Sadr ata, pir, murshid, murid, irshad.

#### KIRISH

Nafaqat Turkiston, balki Xuroson, Anado'li, Volgabo'yi, Sibir va uning atrofida yashovchi turkiy xalqlar orasida musulmonlashuv jarayonining kuchayishi, tasavvuf adabiyotining yoyilishi hamda shuhrat topishida Ahmad Yassaviyning ta'siri kuchli bo'lgan. Uning diniy-tasavvufiy qarashlari, tariqati asrlar davomida turkiy xalqlarni ta'sirlantirib kelgan. Ulug' shayx butun islom

## ADABIYOTSHUNOSLIK

olamida “Piri Turkiston”, “Xojai Turkiston”, “Hazrati sulton”, “Sulton-ul orifin” va “Avliyolar sarvari” kabi nomlar bilan tanilgan va qadrlangan.

Bu ulug’ zotning hayoti va ijodiy faoliyatni nafaqat O’zbekistonda, balki dunyo miqyosida keng ko’lamda tadqiq qilingan va turli bahsli mulohazalar bildirilgan. Yassaviy hikmatlarini chuqur o’rganib, obyektiv baholash bugungi kunda yassaviyshunoslik oldida turgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada, ayniqsa, qardosh Turkiyada amalga oshirilgan tadqiqotlar ahamiyatlidir.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ahmad Yassaviyning irfoniy asarlari qancha o’rganilgan bo’lsa, uning hayoti yo’li ham hamisha yassaviyshunoslarning diqqat markazida bo’lgan. Ayniqsa, uning ta’lim va tahsil maktablari, ustodlari, xalifalari, izdoshlari haqidagi ma'lumotlar xususida jiddiy yirik tadqiqotlar olib borilgan. Zero, mazkur izlanishlar uning dunyoqarashi, tariqatining o’ziga xos jihatlarini belgilashda juda muhimdir. Piri Turkistonning xalifalari, izdoshlari va yassaviylik tariqati davomchilar haqida qardosh turk olimlari tomonidan tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, bu borada Fuad Ko’pruli, Kamol Erarslon, Atham Jabajio’g’li, Najdat Tosun, Hayoti Bija kabi olimlarning ishlari alohida qimmatga ega.

Ahmad Yassaviydan so’ng yassaviylik tariqati qaysi izdoshlari vositasida davom etib kelganini aniqlash muhimdir. Manbalarda Mansur ota, Said Ota, Hakim Ota va Sulaymon Otalar turk pirining to’rt asosiy xalifasi bo’lgani aytildi. Bir qancha qadimiy manbalarda piri Turkistonning hayoti, xalifalari, yassaviylik tariqati davomchilar va izdoshlarining tarixiy va manoqibiy hayoti ba’zan to’liq, ba’zan esa qisman, yo’l-yo’lakay ma'lumot berilgan. Tarixiy va manoqibiy manbalarga ko’ra, Ahmad Yassaviy izdoshlaridan biri Arslonbobning avlodlaridan bo’lgan Zangi otadir. Bu ulug’ zot Hakim otaning eng mashhur muridi sanaladi. Manbalarda yozilishicha, baquvvat va barvasta bo’lib chorvachilik bilan shug’ullangan. Nihoyatda xayr-sahovat va himmatli bo’lgani sabab xalq orasida “Himmatiy” deb nom taratgan.

### NATIJALAR

Zangi ota Arslonbobning to’rtinchı avlod nabirasi sanaladi. Yassaviy vafotidan so’ng Arslonbobning o’g’li Mansur ota (vafoti-1197-98) birinchi xalifa bo’lgan. Mansur otadan keyin uning o’g’li Abdumalik ota (vafoti-1218), so’ngra uning o’g’li Toj Xoja ota (vafoti-1299/1200) bo’lgan. Zangi ota esa Toj Xoja otaning farzandi edi. Ahmad Yassaviy va uning xalifalari haqida ma'lumot beruvchi Mavlono Ali Safiyning “Rashahot” asarida Zangi ota haqida “*Hakim otaning birinchi xalifasi edi... Tug’ilgan, yashagan va vafot etgan joy Shosh viloyatidir*”, deya qayd etilgan [8.33]. Alisher Navoiy “*Turkiston mashoyixidindur va ko’p mashoyix xidmatu suhbatig’ a yetibdur. Va turk ulusida mashohirlardindur...*”, deb ulug’laydi [2.420]. Ahmad Yassaviy asos solgan Yassaviya tariqatining eng mashhur yo’nalishi – «Silsilai sharif suluki», ya’ni Yassaviyi jahriyai sultoniy Zangi Ota orqali keng yoyilgan.

Olimlarning umumiy e’tiroflariga ko’ra, asl ismi Oy Xoja bo’lgan va Zangi ota nomini Ahmad Yassaviy bergen [10]. Xalq orasida Zangi ota deb nom taratgan. Ilk ta’limini otasi Toj Xojadan oladi. Keyinroq Hakim otaning xizmatida bo’lib, u zotdan zohir va botin ilmini puxta egallaydi. Komilxon Kattaev Zangi ota Hakim otaning muridi bo’lganiga ishochsizlik bilan qaraydi. Bunga asos qilib yillar o’rtasidagi (72 yil) tafovutni ko’rsatadi [4.48].

Abdurahmon Go’zal Zangi ota nomining kelib chiqishini forschedagi “zangi” – qora va siyoh ma’nosini, “ota” kalimasi esa O’rta Osiyoda “shayx”, “murshid” ma’nosini anglatishini yozadi [1.21-57]. Fuot Ko’pruli arab Arslonboboning avlodidan bo’lgani uchun qora tanli, ko’rimsiz odam edi, deya e’tirof etadi [5.92].

Zangi ota hozirgi Toshkent va uning atrofidagi hududlarda xalqni islom diniga targ’ib qilgan va hijriy 656 (m.1258-59) yilda vafot etgan. Zangi otaning qabri Hozirgi Toshkent viloyati Zangiota tumanida joylashgan.

Manoqiblardagi ma'lumotlarga ko’ra, Ahmad Yassaviyning Zangi otaga mehri bo’lakcha bo’lib, uni “pirim” degan. – Biz sizdan oldin vafot etsak, kuni kelib sizning qabringiz ustiga biznikidan oldin maqbara qurilmasın, degan. U zotning ruhi pokiga atab Amir Temur tomonidan maqbara buniyod qilingan va Mirzo Ulug’bek uni oxiriga yetkazgan. Bugungi kunda yirik ziyyaratgoh maskanlaridan biri sanaladi.

Manbalarga ko'ra, Zangi ota ham Ahmad Yassaviy va Hakim ota singari hikmatlar aytgan. Turkiy va forsiy tillardagi bu hikmatlardan faqatgina bitta she'ri bizga qadar yetib kelgan. Sayfiddin Sayfulloh Shayx Zinda Alining "Samarot ul-mashoyix" asarini tadqiq qilib, unda Zangi otaning forsiy tilda yozgan quyidagi ruboysi keltirilganini aytadi:

*Zanjiri dori saroyi shohi moim,  
Sanduqi javohiri ilohi moim.  
Az moh grifto tu bo mohi moim,  
Bo in hamo nur dar shifoi moim [9.80-83].*

(*Shohlar saroyi eshigining zanjiri bizmiz, ilohiy javohirlar sandig'i bizmiz. Oydan baliqqa (yer ostiga) qadar yetgan bizmiz, Bu qadar nur ila-da siyoh bo'lgan bizmiz.*)

Xalqning Zangi otaga mehri va ixlosi baland bo'lgan. Manoqiblarda Zangi otaning xastalarni tuzatgani va O'rta Osiyo musulmonlari orasida Cho'pon ota – qo'ylarning piri, Zangi ota – qora mollar (sigirlar)ning piri sanalgani aytildi [3.] Zangi otaga atab bir qancha she'rlar ham bitilgan. Fuod Ko'pruli Yassaviy darvesh shoirlaridan Shamsiyning "Majmuai Haziniy" sida Zangi otaga atab musammat tarzida yozilgan munojooti haqida yozadi [5.95-96].

Zangi ota bir qancha muridlar tarbiyalagan. Jumladan, Uzun Hasan ota, Sayid ota, Sadr ota, Badr otalar Zangi otaning xalifalari sanaladi. Zangi otaning birinchi xalifasi Uzun Hasan ota madrasa ilmlarini, ayniqsa, usul darslarini yaxshi bilgani uchun Usulli Hasan ota nomi bilan ham tanilgan. Samarcandda ul zotga nisbat berilgan mozor ham bor [6].

Yassaviya tariqati Zangi otaning ikki muridi Sayid ota (Sayid Ahmad) va Sadr ota (Sadriddin Muhammad) orqali davom ettirilgan.[10.179-181]. Najdat Tosun tadqiqotlarida Sayid otaning Xojagon shayxlardan bo'lgan Ali Romitoniy bilan ko'rishganini e'tirof qiladi [7]. Naql qilinishicha, Sayid ota qirq marta chilla tutgan va o'n bir ming tolibi sodiqni valiylik darajasiga yetkazgan. Sayid ota umrining so'nggi yillarda yetti yil davomida mashriq kofirlari bilan g'azovot urushi olib borgan. Hijriy 691//1292 yilda vafot etgan. Qabri Xorazmga qarashli Orol mavzeida, Jayhun daryosi yaqinidagi Oqqo'rg'on degan yerda Hakim Ota bilan bir hazirada dafn etilgan [4.9-10].

## MUHOKAMA

Tarixchi olim va manbashunos Komilxon Kattaev Olim Sayid ota va uning avlodlari tarixini tadqiq qilgan. Olimning e'tirofiga ko'ra, Sayid ota avlodlarining Shayboniyxon davrida taqdirlangan va turli nozik masalalarda elchi sifatida boshqa mamlakatlariga yuborilgan [4.28-42].

Zangi ota Sayid ota va Sadr otani xalqni islom diniga da'vat qilish maqsadida Dashti qipchoq yerlariga yuborgan. Ularning irshodi ta'sirida Oltin O'rda hukmdori bo'lgan O'zbekxon 70 ming xalqi bilan birga islomni qabul qilib, musulmon bo'lgan [7.].

Sadr ota Zangi otaning uchinchi xalifasi bo'lgan. Toshkent xalqini irshod qilgan. K.Kattaev Yassaviy xalifalari va yassaviylik silsilasi davomchilari haqidagi tadqiq qilgan. Olim «Muzakkirul-ahbob» muallifi Hasanxoja Nisoriy o'z nasabini Sadr Otaga bog'lashini va Sadr Otani Zangi Otaning farzandi, deb ta'kidlaganini yozadi [4.10].

Yassaviya tariqati Sadr otaning xalifalari orqali shuhratini davom ettirgan. Sadr otadan so'ng uning xalifasi Eyman (Elomon yoki Almon) bobo, so'ngra uning xalifasi Shayx Ali va Mavdud shayx xalqni dinga da'vat qilishda davom etgan. Mavdud shayxdan so'ng yassaviya tariqati silsilasi ikki qo'lga ayrıldi. Bular: Kamol shayx Iqoniy va ikkinchisi Xodim shayx bo'lgan. Fuod Ko'pruli yassaviylik tariqati davomchilari Kamol shayx va Xodim shayxlar orqali davom etgan yassaviylik silsilasini ko'rsatib o'tadi [5.97].

Ahmad Yassaviyning boshqa yana bir qancha izdoshlari bo'lib, Shayx Xudoydod Vali, Qosim Shayx Azizon va Olim Shayx Azizonlar, Safiyiddin O'rung Qo'yloqiy, Bobo Mochin, Amir Ali Hakim, Hasan Bulg'oriy, Usmon Mag'ribiy, Jamoliddin Toshkandiy, Mavdud Ikoniy, Jamoliddin Qashg'ariy, Sulaymon G'aznaviy, Sayyid Mansun Balxiy (Sayid Mansun Qoshiqtarosh) kabi zotlar tufayli yassaviylik tariqati XIX asrda chor Rossiysi bosqiniga qadar davom etgan.

## XULOSA

Turkiy xalqlar madaniy va diniy tumush tarzining shakllanishida Ahmad Yassaviyning ta'siri kuchli bo'lgan. hikmatlar mazmuni qur'on va hadislар asosida bo'lib, din ahkomlari va ahli sunnat aqidasini turkiy tilda sodda, ravon uslubda xalqqa yetkazishni maqsad qilgan. vafotidan so'ng ham

## ADABIYOTSHUNOSLIK

tariqati va ta'lifoti, fikr-qarashlari keng mintaqalarda muridlari va izdoshlari tomonidan davom ettirilgan. Asrlar davomida yassaviylik tariqati vakillari va darveshlar vositasida uzoq o'lkalarga yetib bordi. Yassaviyshunos olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarning asosiy qismini ahmad yassaviyning hayoti, irfoniy maslagi, tariqatdagi faoliyat, muridlar tarbiyasi va yassaviylik tariqati davomchilari haqidagi izlanishlar tashkil etadi. Ahmad Yassaviy va yassaviylik tariqatining ilg'or vakillari haqidagi ma'lumotlar va ular qoldirgan adabiy merosni o'rganib, tadqiq qilish hamda keng kitobxonlar ommasiga tanitish bugungi kun ilm ahli oldida turgan muhim masalalardan biri sanaladi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Abdurahman Guzel. Milli kulturimizde babalar. – Ankara, 1991. (Abdurahman Guzel. Fathers in our national culture. – Ankara, 1991.)
  2. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. Mukammal asarlar to'plami. 20 томлик, 17-tom. – Toshkent, 2001. (Alisher Navoi. Nasoyim ul-mohabat. A perfect collection of works. 20 vols, 17 vols. – Tashkent, 2001)
  3. Aynur Koçak, Zengî ata'nın menkabeleri, türbesi ve bayramı üzerine, 23.09. 2010 // (Aynur Koçak, on the legends, tomb and feast of Zengi ata) <https://hbvdergisi.hacibayram.edu.tr/index.php/tkhbvd/article/view/552>;
  4. Komilxon Kattayev. Sayid ota va yassaviya tariqati murshidleri tarixi. – Toshkent.: Qaqnus media, 2019. (Komilxon Kattaev. History of sayyid ota and murshids of yassaviya sect. – Tashkent.: Kaknus media, 2019)
  5. Ko'pruli Fuod. Turk edebiyatinda ilk mutasavvuflar. – Ankara, 1976. (Kopruli Fuad. The first mystics in turkish literature. – Ankara, 1976)
  6. Necdet Tosun. Zangi ata. Orta Asiyali Yesеви шеъхи. (Najdat Tosun. Zangi father. Central asian yasavi sheikh) <https://islamansiklopedisi.org.tr/zengi-ata>:
  7. Necdet Tosun. Yeseviyye. (Najdat Tosun. Yasaviyya) <https://islamansiklopedisi.org.tr/yeseviyye>;
  8. Sâfi Mevlânâ Ali bin Hüseyn. Reşahat ayn-el hayat. Terc: Seyfettin Oğuz, 2017. (Mawllana Ali Ibn Husain Safi. Rashahat ain al-hayat. Trans: Seyfettin Oğuz)
  9. Seyfuddin Seyfullah. Seyh Zina Alinin "Semeret ul-mesayih" eserinde Hoca Ahmet Yesеви ve onun devamciları hakkında. Uluslararası Hoca Ahmet Yesеви sempozyumu. – İstanbul, 2012. (Seyfuddin Seyfullah. About Hoca Ahmet Yesеви and his followers in sheikh Zina Ali's work "Semeret ul-mesayih". International Hodja Ahmet Yesеви symposium. – İstanbul, 2012 )
  10. Necdet Tosun. Zangi ata. Orta Asiyali Yesеви шеъхи (Najdat Tosun. Zangi father. Central Asian Yasavi sheikh) <https://islamansiklopedisi.org.tr/zengi-ata>:
- Aynur koçak, Zengî ata'nın menkabeleri, türbesi ve bayramı üzerine, 23.09. 2010 (Aynur Koçak, on the legends, tomb and feast of Zengi ata) <https://hbvdergisi.hacibayram.edu.tr/index.php/tkhbvd/article/view/552>;

(Taqrizchi: A.Sabirdinov – Filologiya fanlari doktori)